

Nominatsiya

**Milliy qadriyatlar ishtirokidagi kampaniya**

Brend

**Havas**

**Havas diskaunterlar tarmog'i:  
Qo'shnim tavsiya qildi**



Havas diskaunterlar tarmog'i va Division marketing agentligining reklama kampaniyasi O'zbekiston xalqi uchun tavsiyalar va izohlarning ahamiyati masalasini ko'taradi. Havas — bu uyingiz yaqinidagi oziq-ovqat diskaunteri bo'lib, u yerda barcha o'zi va oilasi uchun kerakli bo'lgan mahsulotlarni topishi mumkin.

Vaziyat:

Mahalliy chakana savdo bozorida yangi ishtirokchilar tobora ko'paymoqda. Havas oziq-ovqat diskaunteri ham iste'molchilar uchun xuddi shunday yangi tarmoqqa aylandi. Har hafta yangi Havas do'konlari ochiladi. Ammo "oziq-ovqat diskaunteri" atamasi iste'molchilar va maqsadli auditoriya uchun tushunarli emas edi.

"Havas" oldida oziq-ovqat diskaunterining afzalliklarini namoyon qilish, brendni raqobatchilar orasida ajratib ko'rsatib bera olish, Havas va boshqa do'konlar o'rtasidagi farqni topish va chegirma bilan xarid qilishning afzalliklarini belgilash vazifasi turardi.

Natijalarni hisoblash vositalari:

O'tkazilgan kampaniya samaradorligi natijalarini sarxisob qilish uchun, birinchi navbatda, savdo nuqtalariga tashriflar ko'rsatkichi tanlab olindi.

G'oya:


Biz maqsadli auditoriya o'rtasida so'rov o'tkazdik va ulardan har birining do'konga borish sabablarini aniqladik. Bu sabablar esa muloqotning asosiy g'oyasiga aylandi.

Madaniy tushunchalar va milliy qadriyatlarni o'rgangan holda biz shunday xulosaga keldikki, bizning potensial iste'molchilarimiz ma'lum mahsulot va brendni tanlashda ko'p hollarda qo'shnilar, do'stlar va qarindoshlarining fikriga asoslanadi. Bu — xalqimizga xos madaniy qadriyatlar xaritasi. Iste'molchilik tanlovida tanishlarimizning tavsiyalari katta rol o'ynaydi.



Videoni ko'rish uchun havola bo'yicha o'ting

Ko'rish



Natijalar:

Natija kutilganidan ortiq bo'ldi: reklama kampaniyasi televideniye va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilganidan so'ng diskaunterga tashrif buyuruvchilar soni

**17% ga**

savdo esa

**36% ga**

oshdi

Ijtimoiy  
tarmoqlardagi  
qamrov

**280K** dan oshdi

Video tomoshabinlar tomonidan ijobiy qabul qilindi va biz mingdan ortiq layk hamda 400 ijobiy izoh to'pladik.

Iste'molchilarning fikr-mulohazalariga asoslangan holda, "Havas" auditoriyaga diskaunterlar tarmog'idan xarid qilishning afzalliklarini yetkaza oldi, degan xulosaga kelindi. O'tkazilgan kampaniya natijasida diskaunter xizmatlaridan foydalangan iste'molchilarning aksariyati tarmoqqa doimiy sodiq mijoz bo'lib qoldi.

E'tiboringiz uchun rahmat!

by Division